

**QO'SHMA TERGOV GURUHLARI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ
MUNOSABATLARNI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.**

Dilshod Egamberdiyev

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari

kafedrasi katta o'qituvchisi

ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-1645-044X>

E-mail: d.egamberdiyev@tsul.uz

Annotatsiya. Jinoyatchilikka qarshi kurash va transmilliy jinoyatlarni oldini olish borasida amalga oshirilayotga islohotlar zamirida albatta jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam instituti ham rivojlanib bormoqda. Muallif maqolada qo'shma tergov guruhlarini tuzish va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam borasida fikr mulohaza yuritgan. Bu sohada to'plangan tajribani huquqiy tahlil etib bergan.

Kalit so'zlar. qo'shma tergov, hamkorlik, konvensiya, jinoyat, huquqiy yordam, guruh, kelishuv.

Bugungi kunda, qo'shma tergov guruhlarini tuzish bilan bog'liq munosabatlar xalqaro huquqda yagona bir universal shartnoma mavjud emas. Lekin shunga qaramasdan, mazkur soha BMT tomonidan ishlab chiqilgan bir nechta xalqaro hujjatlarda va davlatlar qonunchiligida u yoki bu shaklda tartibga solinishi birmuncha amalga oshirildi. Qo'shma tergov guruhlarini tuzish to'g'risidagai milliy qonunchilikdagi qoidalar o'ziga xos tartibda rivojlanib keldi. Qo'shma tergov guruhlarini tuzish va ular faoliyatini tartibga solishda rivojlangan davlatlar amaliyoti shuni ko'rsatdiki, ayrim davlatlarda jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikning bu turini samaradorligini oshirish maqsadida alohida qonun qabul qilingan. Misol uchun, Irlandiya ("Jinoyat odil

sudlovi (qo'shma tergov guruhlar tuzish) to'g'risida"gi Qonun)[1], Ruminiya 2003-yilda "Uyushgan jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risida"gi №39/2003 qonuni[2], Shvetsiyada 2003-yilda qabul qilingan "Jinoiy tergov ishlarini olib borish bo'yicha qo'shma tergov guruhlarini to'g'risida"gi qonunini[3], Kipr Respublikasida 2004-yilda "Qo'shma tergov guruhlarini to'g'risida"gi qonunlarni[4] keltirishimiz mumkin. Shuningdek, Avstriya, Belgiya, Germaniya Federativ Respublikasi, Portugaliya, Bosniya va Gersogavina, Kosova, Chernogoriya, Serbiya va Makedoniya, Gruziya Respublikasi[5] davlatlarida qo'shma tergov guruhlarini faoliyatini tartibga solish bevosita "Jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro yordam to'g'risida"gi qonunlarda o'z aksini topgan[6]. Bundan tashqari, qo'shma tergov guruhlarini faoliyatini tartibga soluvchi normalar alohida qabul qilingan qonunlar yoki "Jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro yordam to'g'risida"gi qonunlardan tashqari davlatlarning jinoyat protsessual kodekslarida ham uchratishimiz mumkin. Masalan Chexiya Respublikasi[7], Fransiya Respublikasi[8], Estoniya Respublikasi[9], Latviya Respublikasi[10], Niderlandiya Qirolligi[11], Bolgariya Respublikasi[12], Polsha Respublikasi[13], Slovakiya, Sloveniya Respublikalari, Qozog'iston Respublikasi[14], Moldova Respublikasi[15] va Ukraina Respublikasining jinoyat protsessual kodekslarida qo'shma tergov guruhlarini tuzish va ularni tartibga solish bo'yicha qoidalarni ko'rishimiz mumkin. Ayrim mamlakatlar qonunchiligi aks ettirilmagan bo'lsada lekin bu mamlakat bir necha mamlakatlar bilan ikki tomonlama shartnoma orqali qo'shma tergov guruhlarini faoliyatini tartibga solib kelishmoqda[16]. Bunga yaqqol misol sifatida 2003-yil 25-iyunda imzolangan "Yevropa Ittifoqi va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida o'zaro huquqiy yordam to'g'risida"gi[17] bitimni keltirishimiz mumkin. Ushbu bitim odatda ikki mamlakat o'rtasida tuziladigan ikki tomonlama shartnomalar toifasiga mansub bo'lsada, bitimning ahamiyati shundaki AQSHga nisbatan bitimning boshqa tomoni bir davlat emas, balki hozirgi kunda yigirma yetti mamlakatdan iborat bo'lgan davlatlar ittifoqir. Mazkur shartnoma ikki mintaqada davlatlarining jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro hamkorlikni amalga oshirishda muhim hujjat bo'lib xizmat qilmoqda. Davlatlarning ichki

qonunchiligi bilan jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlarining samarali faoliyati natijasi hisoblanadi. Qo'shma tergov guruhlarini tuzish va ular faoliyatini tartibga solish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida hech qanday normalar belgilab berilmagan. Ammo, bugungi kunda Bosh prokuratura tomonidan qo'shma tergov guruhlarini tuzib hamkorlik amalga oshirilmasada, bevosita davlatlar o'rtasida sodir etilgan transmilliy jinoyatlarni tergov qilishda tergov protsessida ishtirok etish bilan bog'liq huquqiy yordam amalga oshirilib kelinmoqda. Huquqiy yordam hamkorligi bo'yicha amaliyot ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlarga chet davlat huquqni muhofaza qilish organlariga sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda tergov protsessida ishtirok etish bo'yicha so'rovlar kelib tushadi. O'zbekiston Respublikasi tomonidan chet davlat vakolatli organlariga so'rovlar yuboriladi. Misol uchun, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan 1993-yilda qabul qilingan Minsk konvensiyasi va JPKning 592-593-moddalarini qo'llab Qozog'iston Respublikasi vakolatli organiga, O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat kodeksi 167-modda 3-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan shaxsni Qozog'iston Respublikasi hududida tergovni amalga oshirishda ishtirok etish va tergov ma'lumotlarini almashish bo'yicha so'rov yuborilgan. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura Xalqaro hamkorlik boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, tergovlarda ishtirok etish bo'yicha hamkorlik asosan MDH davlatlari bilan ko'proq amalga oshiriladi. Lekin bunday huquqiy yordam bir yilda 2 yoki 3 ta huquqiy yordam amalga oshiriladi. Qo'shma tergov guruhlarini faoliyatini milliy qonunchilikda tartibga solinmaganligi amaliyotda bu turdagi huquqiy yordamni amalga oshirish bo'yicha kamchiliklar yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Chunki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-noyabrda qabul qilingan "1993-yil 22-yanvardagi Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to'g'risidagi konvensiya va 2002-yil 7-oktyabrdagi Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi konvensiya

qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4895-son qarori[18] 2- ilovasi bilan Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Konvensiyaga (Kishinev, 2002-yil 7-oktyabr) a'zo davlatlarning vakolatli organlari bilan hamkorlikni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlari ro'yxati belgilab berildi. Unga ko'ra, Kishinev konvensiyada nazarda tutilgan qo'shma tezkor-qidiruv guruhlarini tashkil qilish bo'yicha takliflarni jo'natish va ko'rib chiqish, dastlabki tergovni amalga oshirish bilan bog'liq topshiriqlarni amalga oshirish Bosh prokuraturaga yuklatilganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, qaror bilan dastlabki tergovni amalga oshirish bilan bog'liq topshiriqlar va ish yurituvdagi jinoiy ishlar bilan bog'liq masalalar bo'yicha hamkorlikni amalga oshiruvchi organ etib Davlat xavfsizlik xizmati belgilangan. Qo'shma tergov guruhlarini tuzish bilan bog'liq milliy qonunchilik normalari mavjud bo'lmasada yuqoridagi Prezident qarori bilan qo'shma guruhlarini tuzish bilan bog'liq hamkorlik Bosh prokuratura amalga oshirishi aniq belgilab berildi. Ammo, qo'shma tergov guruhlarini tuzish va ular faoliyatini tartibga solish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida aniq normalar mavjud emas. Ammo, mamlakatimiz jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam borasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib kelinmoqda.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 28-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi sonli qonuni bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga "Jinoiy sud ishlarini yuritish sohasidagi xalqaro hamkorlik"ka bag'ishlangan alohida 14-bo'lim (592-609-moddalar) kiritildi. Unda protsessual harakatlarni xorijiy davlat hududida bajarish to'g'risida so'rov yuborish, bunday so'rovning mazmuni va shakli, xorijiy davlat hududida olingan dalillarning yuridik kuchi, so'rovni O'zbekiston Respublikasi hududida ijro etish, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgan guvohni, jabrlanuvchini, ekspertni, fuqaroviy da'vogarni, fuqaroviy javobgarni, ularning vakillarini chaqirish, jinoiy ish materiallarini xorijiy davlatning vakolatli organiga

yuborish, jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi so'rovni O'zbekiston Respublikasi hududida ijro etish, xorijiy davlat hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risida so'rov yuborish, O'zbekiston Respublikasiga ushlab berilgan shaxsning jinoiy javobgarligi doirasi, O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi so'rovni ijro etish, O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilish, O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni xorijiy davlatga ushlab berishni rad etish, ushlab berishni kechiktirish va vaqtincha ushlab berish, O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish uchun ushlab turish va qamoqqa olish, O'zbekiston hududida ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan shaxsni ozod qilish, O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan ushlab beriladigan shaxsni topshirish, ushlab berilgan shaxsni tranzit tarzida o'tkazish, ashyolarni topshirish kabi masalalar tartibga solingan. O'zbekiston Respublikasi JPKda jinoyat ishlari bo'yicha hamkorlikka oid yuqoridagi protsessual qoidalar o'z aksini topgan bo'lsada, ushbu qoidalar mazkur institutni qo'llash jarayonida yuzaga keladigan barcha holatlarni qamrab olgan, deb bo'lmaydi. Shu boisdan, XXI asrda rivojlanib borayotgan jinoyatchilik, transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashdagi faoliyatiga rahna soladi hamda qator munosabatlarni huquqiy tartibga solish bo'yicha qonunchilikda bo'shliqni yuzaga keltiradi. Vaholanki O'zbekiston Respublikasi jinoyatchilikka qarshi kurash va jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik borasida bir qancha universal va mintaqaviy xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan hisoblanadi. Shunday ekan, bu borada xalqaro hamkorlik uzluksiz rivojlanib borayotgan bir sharoitda jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikka oid qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirish talab etiladi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 595-moddasining 4-qismi "Protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rovni ijro etishda jinoyat protsessual kodeksi normalari qo'llaniladi. Xorijiy davlat vakolatli organining iltimosi bo'yicha, agar bu O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo'lmasa, xorijiy davlatning protsessual qonunchiligi normalari qo'llanilishi mumkin" deb o'zgartirish va qo'shimcha kiritilishi

maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, mazkur moddaning yettinchi qismidagi “qonun hujjatlariga” degan soʻzlar “qonunchiligiga” degan soʻzlar bilan almashtirilishi kerak. Yuqorida taklif etilayotgan normaning milliy qonunchilikda aks ettirilishi protsessual harakatlarni bajarishda hamkorlikda milliy qonunchilik normalarini mustahkamligini aks ettiradi. Yaʼni, yuqorida taʼkidlaganimizdek bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasi jinoyat ishlari boʻyicha huquqiy yordam amaliyotida chet davlatda tergov jarayonlarida tergovchilarning yoki davlat hududida chet davlat tergovchilarining ishtiroki bilan bogʻliq hamkorlik amalga oshirib kelinmoqda. Shuningdek, taklif orqali davlatlar hamkorlikda xalqaro hujjatlarda belgilab berilgan oʻzaro suverenitetni hurmat qilishni ham taʼminlashga imkon yaratadi.

Ikkinchidan, xalqaro hamkorlik doirasida tezkor qidiruv faoliyatini olib borish bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlikni amalga oshirishning yana bir koʻrinishi sifatida shakllanib kelmoqda. Oʻzbekiston Respublikasida 2012-yil 25-dekabrda OʻRQ-344-son bilan “Tezkor qidiruv faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonun qabul qilindi[19]. Qonun qabul qilingandan soʻng bevosita jinoyatchilarni qoʻlga olish boʻyicha xalqaro hamkorlikda bir necha tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Ammo, tezkor qidiruvni faoliyatini amalga oshirish boʻyicha xalqaro hamkorlikni tartibga solish mexanizmi koʻrsatilmagan. Natijada, Oʻzbekiston Respublikasi ratifikatsiya qilgan konvensiyalarda belgilangan qoidalarni amalga oshirishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki yuqorida qayd etilgandek, protsessual harakatlarni bajarish toʻgʻrisidagi soʻrovni ijro etishda jinoyat protsessual kodeksi normalari qoʻllanilishi boʻyicha berilgan taklifga ham zid boʻlib qoladi. Shuningdek, davlat suverenitetini hurmat qilishda ham ziddiyat yuzaga kelish ehtimoli yuqori hisoblanadi. Mazkur sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish uchun asos sifatida biz qonunni 28¹-moddasi bilan toʻldirishni taklif etamiz. Unga koʻra, “Tezkor-qidiruv faoliyati sohasida, shu jumladan Oʻzbekiston Respublikasining, shuningdek chet davlatlarning vakolatli organlari va turdosh xalqaro tashkilotlar xodimlarining jinoyatchilikka qarshi kurashish boʻyicha

hamkorlikdagi tadbirlarda ishtirok etishi masalalari yuzasidan xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi" deb belgilab qo'yilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu, qoida bevosita qo'shma tergov guruhi faoliyati emas balki jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha hamkorlikning bir ko'rinishi sifatida gavdalanadi.

Uchinchidan, zamonaviy raqamlashib borayotgan jamiyatda ma'lumotlar oqimisiz va telekommunikatsiyaviy tizimlarsiz axborot-kommunikatsiya texnologiyalari evolyutsiyasini tushunish mumkin emas. Biroq bu evolyutsiya jamiyatning barcha qatlamlari uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan qatorda, kiber makonda misli ko'rilmagan qiyinchiliklar va kiber jinoyatlarning rivojlanishiga ham katta yo'l ochib bermoqda. Bugungi kunda xalqaro maydonda kiber xavfsizlikni ta'minlash va kiber jinoyatchilikka qarshi kurash kundan-kunda dolzarb bo'lib bormoqda. Kiber jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlar o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish bilan bir qatorda milliy qonunchilik normalarini ham tokiomillashtirib kelmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasida ham 2022-yil 15-aprelda "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun[20] qabul qilindi. Ushbu qonun bilan kiber xavfsizlikni ta'minlash uchun vakolatli organ sifatida Davlat xavfsizlik xizmati belgilab berildi. Qonunning 11-moddasiga ko'ra Davlat xavfsizlik xizmatining ushbu sohadagi vakolatlari aniq belgilab qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin. Moddaning 2-qism 3-bandiga ko'ra Davlat xavfsizlik xizmati "kiberxavfsizlik hodisalari yuzasidan tezkor-qidiruv tadbirlarini, tergovga qadar tekshiruvlarni va tergov harakatlarini amalga oshirish" vakolati mavjud hisoblanadi. Shuningdek, moddaga ko'ra, Davlat xavfsizlik xizmati kibertahdidlarga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishi bundan tashqari, kiberxavfsizlik sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, kibertahdidlarga qarshi kurash bo'yicha umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish, kiberjinoyatchilik bo'yicha tergov harakatlarini olib borish va kiberjinoyatchilikning oldini olish borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish kabi vakolatlar belgilangan. Yuqorida keltirilgan vakolatlardan ko'rishimiz mumkinki vakolatli organ tomonidan kiberxavfsizlikni

ta'minlash borasida xalqaro hamkorlik amalga oshirish mumkin hisoblanadi. Ammo, bu vakolatni yanada kengaytirish orqali kiberxavfsizlikni ta'minlashda yanada samaradorlikka erishish mumkin. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonunning 11-modda 20-bandini "kiberxavfsizlik sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish va kibertahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish, kiberjinoyatlarga qarshi kurashda hamkorlikda qo'shma tergov guruhlarini tuzish va tergov harakatlarini olib borish hamda kiberjinoyatchilikning oldini olish borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining kibermakonida terrorchilik, ekstremistik va boshqa qonunga xilof faoliyatda foydalanishiga yo'l qo'yilmaslik choralarini ko'rish" deb o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu taklif etilgan o'zgartirish orqali kibertahdidlarga qarshi kurashda davlatlar hamkorligini yanada rivojlantirish bilan bir qatorda davlatlarda jinoyatlarni tez ochish, dalillarni yo'q bo'lib ketishini oldini olish va hamkor davlatlar tergov organlarining bir jinoyat ishi bo'yicha o'zaro integratsiyasiga zamin yaratadi. Yuqorida taklif etilgan o'zgartirish va qo'shimchalarda nazarda tutilgan o'zgarishlarning qabul qilinishi shu sohaga oid bo'lgan xalqaro shartnomalarda belgilangan O'zbekiston Respublikasining majburiyatlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish orqali vujudga kelgan qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etadi hamda jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik mexanizmini takomillashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. <https://www.irishstatutebook.ie/eli/2004/act/20/enacted/en/pdf>
2. https://sherloc.unodc.org/cld/uploads/res/document/rou/law_nr_392003_on_preventing_and_combating_organized_crime.html/Romania_Law_Preventing_Combating_Organized_Crime_R10-5_2010.pdf
3. Act on Joint Investigation Teams for Criminal Investigations // http://www.imolin.org/doc/amlid/Sweden_Act%20on%20Joint%20Investigation%20Teams.pdf
4. THE JOINT INVESTIGATION TEAMS LAW, 2004 // [http://www.olg.gov.cy/olg/olg.nsf/447C7C948D73EBD0C225860D002DAF8A/\\$file/The%20Joint%20Investigation%20Teams%20Law%20of%202004.pdf](http://www.olg.gov.cy/olg/olg.nsf/447C7C948D73EBD0C225860D002DAF8A/$file/The%20Joint%20Investigation%20Teams%20Law%20of%202004.pdf)
5. LAW OF GEORGIA ON INTERNATIONAL COOPERATION IN CRIMINAL MATTERS // <https://matsne.gov.ge/en/document/view/112594?publication=4> (Murojjaat qilingan sana 26.12.2022 й.)
6. Эгамбердиев, Дилшод. "Международный опыт регулирования и организации расследования международными следственными группами." *Review of law sciences* 3 (2020): 95-99.
7. CODE OF CRIMINAL PROCEDURE OF THE CZECH REPUBLIC // https://policehumanrightsresources.org/content/uploads/dlm_uploads/2017/07/Czech_Republic_Criminal_Procedure_Code_2012.pdf?x19059

8. French code of criminal procedure // https://sherloc.unodc.org/cld/uploads/res/document/fra/2006/code_of_criminal_procedure_en_html/France_Code_of_criminal_procedure_EN.pdf (Мурожаат қилинган сана 26.12.2022 й.)
9. Estonia code of criminal procedure // <https://www.riigiteataja.ee/en/eli/530102013093/consolide>
10. Latvian code of criminal procedure // <https://wipolex-res.wipo.int/edocs/lexdocs/laws/en/lv/lv043en.pdf>
11. The Netherlands Criminal Procedure Code // https://sherloc.unodc.org/cld/uploads/res/document/nld/1921/criminal_procedure_code_of_the_netherlands_html/Code_of_Criminal_Procedure_incorporating_amendments_up_to_October_2012.pdf
12. The Penal Procedure Code of the Republic of Bulgaria // [https://www.venice.coe.int/webforms/documents/default.aspx?pdffile=CDL-REF\(2019\)034-e](https://www.venice.coe.int/webforms/documents/default.aspx?pdffile=CDL-REF(2019)034-e)
13. Polish Code of Criminal Procedure. // <https://www.ilo.org/dyn/natlex/docs/ELECTRONIC/67107/91755/F1298418139/POL67107.pdf>
14. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан // https://online.zakon.kz/document/?doc_id=31575852&pos=7771:-38#pos=7771:-38
15. https://www.legislationline.org/download/id/6793/file/Moldova_CPC_2003_am2016_en.pdf
16. Эгамбердиев, Дилшод Алишерович. "ЖИНОЯТ ИШЛАРИ БЎЙИЧА ЎЗАРО ҲУҚУҚИЙ ЁРДАМ ШАКЛЛАРИДАН ҚЎШМА ТЕРГОВ ГУРУҲЛАРИ ТУШУНЧАСИ ВА АҲАМИЯТИ." *ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ* 7.8 (2022).
17. Agreement on mutual legal assistance between the European Union and the United States of America Official Journal of the European Union L 181/34 19.07.2003. [https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:22003A0719\(02\)&from=EN](https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:22003A0719(02)&from=EN)
18. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 17 ноябрда қабул қилинган “1993 йил 22 январдаги Фуқаролик, оилавий ва жиноят ишлари бўйича ҳуқуқий ёрдам ҳамда ҳуқуқий муносабатлар тўғрисидаги конвенция ва 2002 йил 7 октябрдаги Фуқаролик, оилавий ва жиноий ишлар бўйича ҳуқуқий ёрдам ва ҳуқуқий муносабатлар тўғрисидаги конвенция қоидаларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4895-сон қарори // <https://lex.uz/ru/docs/5106632>
19. “Тезкор қидирув фаолияти тўғрисида”ги Қонун // <https://lex.uz/docs/2107763>
20. Ўзбекистон Республикаси “Киберхавфсизлик тўғрисида”ги Қонуни // <https://lex.uz/uz/docs/-5960604>